

# **Socio-Philosophical Analysis of The Formation of An Informed Society in The Context of Globalization**

Abdulla Mansurov Sayfullayevich

Namangan muhandislik texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

E-mail:lider198304@list.ru, Tel: (97) 3707530



## **Abstract**

**This article was given the philosophical assumption that the emergence of an informed society in the context of globalization and is one of its main factors. Conclusions were drawn as a result of a systematic analysis of the conceptual foundations of globalization and an informed society.**

**Keywords:** **globalization, information, concept of foreign policy, geopolitics, ideological Polygon, intensification of ideological processes.**

## **GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

### **Annotasiya:**

Ushbu maqola globallashuv sharoitida axborotlashgan jamiyatning yuzaga kelishi va uning asosiy omillaridan biri ekanligi falsafiy taxlili berildi. Globallashuv va axborotlashgan jamiyatning konseptual asoslarini tizimli tahlili natijasida xulosalar berildi.

**Kalit so`zlar:** globallashuv, axborot, tashqi siyosat konsepsiysi, geopolitika, mafkuraviy poligon, mafkuraviy jarayonlarni intensivlashuvi.

## **СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

### **Аннотация:**

В данной статье было высказано философское предположение о том, что возникновение информированного общества происходит в контексте глобализации и является одним из ее главных факторов. Выводы были сделаны в результате систематического анализа концептуальных основ глобализации и информированного общества.

**Ключевые слова:** глобализация, информация, концепция внешней политики, глобалистика, идеологический полигон, интенсивность, идеологических процессов.

**Kirish:**

Bugun dunyo sahnasida mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro aloqalar toboro bir-biriga bog`liqlikni va birgalikda faoliyat olib borishni taqozo etmoqda. Bu o`z navbatida turli siyosiy-iqtisodiy tashkilot va hamjamiyatlarni paydo bo`layotgani bilan xarakterlanadi. Ushbu xodisalarni tushunishimiz uchun eng avvalo globallashuv jarayonini tadqiq qilishimiz kerak bo`ladi.

Tarixga aylangan XX asr ikki qutbli jahon mafkuraviy siyosiy sahnasi endilikda o`z o`rnini ko`p qutbli dunyo nazariyasiga o`tganini korsatib bermoqda. Lekin shuni ham aytib o`tish kerakki, Xalqaro munosabatlarda neorealism maktabi vakillari (Kennet Uolts “Xalqaro munosabatlar nazariyasi”) ikki qutbli tizim ko`p qutblisidan barqarorroq degan da`vo bilan chiqishmoqda. Bu esa Globallashuv jarayonining xisobga olinmayotgani va uni inkor etayotgani bilan xarakterlanadi. Globistika va antiglobistika kabi maktablar ham mavjud bo`lib ushbu qarama qarshilik o`rtasida o`zaro tortishib kelishmoqda. Ushbu maqolada globallashuv va axborotlashgan jamiyat xodisalarini ijtimoiy falsafiy tahlil qilinadi.

Axborot asrining eng muhim jihatlaridan biri – butun jahon yagona axborot makoniga aylanayotganligi bilan bog`liq. XXI asrdagi jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili bo`lib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanishidan yaqqol dalolat beradi. Axborot olish va tarqatish borasida beqiyos taraqqiyotga erishildi. Axborot texnologiyalari, internet tizimi jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o`rtasida mutanosiblik mavjud bo`lgan jamiyatgina har tomonlama rivojlanishi mumkin.

Bilamizki, internet tarixida 1950-yillarda kompyuterlarning rivojlanishi AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiyadagi ilmiy va harbiy laboratoriyalarda global kompyuter tarmoqlarining ilmiy va amaliy konseptsiyalarining paydo bo`lishi bilan boshlandi.<sup>1</sup>

Internetni birinchi marta 1969-yilda AQSh harbiy agentligi DARPA buyrug`i bilan yaratilgan ARPANET tarmog`ida qo`llanilgan. ARPANET yutuqlaridan foydalaniib, 1984-yilda AQSH Milliy fan fondi universitetlar va kompyuter markazlari o`rtasidagi aloqa uchun NSFNET tarmog`ini yaratdi. Yopiq ARPANET-dan farqli o`laroq, NSFNET ularish uchun nisbatan bepul edi va 1992-yilga kelib, unga 7500 dan ortiq kichik tarmoqlar, jumladan 2500 tasi AQShdan tashqarida ulangan. NSFNET yadro tarmog`ining tijorat maqsadlarida foydalanishga o`tkazilishi bilan zamonaviy Internet paydo bo`ldi.

To`g`ri mamlakatlar o`zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarini hal etib borish bilan bir qatorda axborotga bo`lgan talab-ehtiyojlarini to`laroq qondirishga intiladi. Globallashgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etmoqda. U jahon hamjamiyati hayotida ham ijobjiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo`lishi mumkin. Shu ma'noda axborot texnologiyalari sohasida katta imkoniyatga ega bo`lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo`lishmoqda. Ular o`z manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlar, g`oyalar va nuqtai-nazarlarini ilgari surmoqdalar. Axborot asrining o`ziga xos jihatlaridan biri – har qanday hodisa axborot texnologiyalari tufayli global voqyeaga aylanmoqda.

<sup>1</sup> Byung-Keun Kim. Internationalising the Internet the Co-evolution of Influence and Technology. Edward Elgar, 2005 — 51—55 bet.

“Lekin, zarur bo‘lsa, biz mamlakatimiz suverenitetiga va mustakilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz.<sup>2</sup>”

Masalan, 2000 yil 11 sentyabrda Nyu-Yorkda yuz bergan voqeа, Livan tuprog‘idagi harbiy harakatlar, Fransiyadagi yoshlarning chiqishlari, ayrim mamlakatlardagi saylovlар jarayonida yuz berayotgan hodisalar, aviahalokatlar, tabiiy ofat, terrorchilik harakatları va boshqa shunga o‘xshash voqyea va hodisalar buning yorqin dalili bo‘ladi. Insoniyat bunday xunrezliklar tagida qandaydir axborot xurujlari bo‘lganini teran anglab yetmoqda. Avval bir to‘da buzg‘unchilar g‘arazli maqsadda axborot xurujini amalga oshiradilar. Bu bilan ular o‘zlariga o‘xshagan g‘arazli maqsadda hyech narsadan tap tortmaydigan kimsalarni topadilar. Qancha soddadil kishilaring ongini zaharlaydilar. Ongi zaharlanganlar esa qilayotgan ishlari qanchalik xatarli ekanliklarini anglab yetishlari g‘oyat mushkuldir. Qanchadan-qancha kishilar qalbida bitmas jarohatga aylangan Andijon voqyealari ham ana shunday zaharlanganlar fojeasi bo‘lib chiqqanini keng jamoatchilik allaqachon anglab yetdi. Bunday g‘ayriinsoniy hodisalar, g‘oyalar zamirida qanday maqsadlar yotganini har tomonlama puxta o‘rganish va ilmiy jihatdan tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review):** Mavzuning mafkuraviy tahdidiga oid jihatlari Azizzxo‘jaev A<sup>3</sup>, . Zokirov B<sup>4</sup>, Suyunov A,<sup>5</sup> Paxrutdinov Sh<sup>6</sup>, Rasulov A<sup>7</sup>, . Saidov U<sup>8</sup> Qo‘chqor Norqobil<sup>9</sup> Begmatov A<sup>10</sup>;

Axborot tahdidi va xavfsizligi bilan bog‘liq jihatlari: Mo‘minov F. A,<sup>11</sup> Eshbekov T<sup>12</sup>, O‘sarov O<sup>13</sup> J. G. Irgashev, R. M. Orazimbetov<sup>14</sup>, Mirodova Sh,<sup>15</sup> Muhammadiev J.O<sup>16</sup>. va boshqalarning asarlarida muhokama qilingan.

Shunga qaramay, amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan bugungi globallashuv va demokratik bozor islohotlari sharoitida strategik boshqaruв tizimida modellashtirish metodini qo‘llashning samaradorligini oshirish va mamlakatimiz tarixiy taraqqiyoti strategik modellarini tahliliga oid masalalar tizimli holda yoritib berilmagan.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Globallashuv jarayonida axborot makonida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar tahliliga oid manbaalarini o‘rganishimizda tarixiy va

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз - Тошкент - «Ўзбекистон». 2016 –Б.9.

<sup>3</sup> Азизхўжаев А . Ғурурнинг-ку чегараси йўқ, андишанинг-чи? //Миллий тикланиш, 2009 йил 20 май

<sup>4</sup> Зокиров Б. Глобаллашув зиддиятлари. //Тафаккур, 2004 йил 1-сон.

<sup>5</sup> Суюнов А. . “Оммавий маданият” кўланкаси. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010 йил 21 май.

<sup>6</sup> Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Т.: Akademiya, 2006.

<sup>7</sup> Расулов А. Глобал жараёнлар ва маънавият. //Ўзбекистон матбуоти, 2008 й. 5-6 сон

<sup>8</sup> Saidov У. Глобаллашув ва маданиятларо мулоқот. –Т.: Академия, 2008..

<sup>9</sup> Қўчқор Норқобил. Онгни заҳарлаш йўлидаги кураш ёхуд жаҳонни тобе этиш дъаъосидаги мафкуравий хуружлар. //Даракчи, 2009, 21 май.

<sup>10</sup> Бегматов А . Глобаллашув, миллий маънавият ва axborot tizimlari. Т., 2006.

<sup>11</sup> Мўминов Ф. А. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiёт. //Ўзбекистон матбуоти, 2007 йил 6-7-сонлар.

<sup>12</sup> Эшбеков Т . Axborot-psixologik xavfsizlik: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма. –Т.: ЎзМУ, 2013

<sup>13</sup> Ўсаров О , Axborotlashaётган жамият талаблари: қонун, ижро, масъулият. //Ўзбекистон матбуоти, 2008 йил 3-сон.

<sup>14</sup> Иргашев Ж. Г. Оразимбетов Р. М. Axborot xavfsizligi va iшончлилигини таъминлаш-Т.2015.

<sup>15</sup> Миродова Ш, Проблемы обеспечения информационной безопасности Республике Узбекистан в условиях глобализации. – Т., 2008.

<sup>16</sup> , Муҳаммадиев Ж.Ў . Axborot xavfsizligi: муаммо ва ечимлар: Монография. – Т., 2011.

mantiqiy usullar birligi, ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, strategik modellashtirish kabi ilmiy - tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bular: - Tarixiy va mantiqiy usullar birligiga ko'ra, axborotlashgan jamiyatni paydo bo`lishi shakllanishi rivojlanishiga tarixiy jarayon sifatida qaralib, turli bosqichlardagi turli islohot va dasturlarimizda ularni qaror topishini ichki zaruriy qonuniyat deb o'rgandik; - ilmiy abstraksiya usuliga ko'ra, biz tahlil paytida globallashuvning ichki va tashqi omillarining ikkinchi darajalisisini chetlashtirib, e'tiborni faqat metodologik jixatdan aniqlab olingan, o'rganilayotgan mavzuga, ya'ni axboortlashgan jamiyatga oid bo'lган ma'lumot va tahlillarga qaratdik; -tizimli tahlil usuliga ko'ra, globallashuv jarayonida mamlakatimizda olib borilgan islohot va dasturlarda axborot sohasiga doir qonun va qarorlardan kelib chiqib ko'rib chiqdik.

**- Tahlil va natijalar (Analysis and results).** “Globallashuv” so‘zi lotincha “globus” (yer shari)dan olingan. Globallashuv deb, ma'lum bir g‘oya yoki maxsulotning sayyoramiz bo‘ylab tarqatilishiga aytildi. Aksariyat mutaxassislar nazdida, globallashuv iqtisodiy jarayonlardan boshlangan. Bunga go‘yo amerikalik olim Tomas Levitt 1983 yilda “Harvard biznes revyu” jurnalida e'lon qilgan “Bozorlar globallashuvi” nomli maqola sabab bo‘lgan. Fikrimizcha, axborot globallashuvini davrlashtirishga bunday yondashuv uncha to‘g‘ri kelmaydi.

Aslida, bu jarayon qachon boshlangani haqida gap borar ekan, aniq bir muddatni keltirish qiyin, albatta. Mazkur sohadagi globallashuv axborot tarqatishning texnik imkoniyatlariga muvofiq rivojlanib kelgan. Hatto alifbo va qo‘lyozmalar (varaqlar, kitoblar) globallashuvning dastlabki ko‘rinishlari o‘laroq xizmat qildi desak, adashmasak kerak. Ushbu masalaning keskin rivojlanishi sifatida bosma kitob, radio va televideniening paydo bo‘lishini aytishimiz mumkin. Balki, axborot globallashuvining zamonaviy bosqichi XX asrning o‘ttizinchi yillarida nemis radiosи boshqa mamlakatlarga o‘z eshittirishlarini uzatishga kirishganidan va 1942 yilda “Amerika ovozi” radiostansiyasi ochilganidan boshlangandir.

Axborotning globallashuvi sayyoramiz bo‘ylab keng yoyilishi uchun “sovuz urush” yaxshigina xizmat qilib berdi. Bunday urush davomida boshqa (sotsialistik, kapitalistik, uchinchi dunyo) mamlakatlar aholisini zudlik bilan va keng ko‘lamda tegishli axborot bilan ta'minlab turish zaruriyati paydo bo‘ldi. Mazkur raqobat natijasi o‘laroq keskin rivojlanib ketgan axborot yetkazuvchi texnika globallashuvning nafaqat axborot, shu bilan bir qatorda barcha boshqa turlari ham avj olishiga sababchi bo‘ldi. Binobarin, ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborotning keng tarqalishi va globallashuvini keltirib chiqardi. Buning oqibatida esa globallashuvning boshqa turlari vujudga keldi.

Ko‘rib turganimizdek, globallashuv axborot shakliga asoslanib va undan boshlanib, keyinchalik iqtisodiy va moliyaviy, so‘ngra siyosiy va harbiy, borabora esa madaniy va mafkuraviy sohalarga ham o‘tib ketdi. Demak, bugungi kunda axborot globallashuvi bu jarayonning barcha qolgan turlari uchun yaxlit asos, matematiklar tili bilan aytganda, umumiy maxraj bo‘lib xizmat qilmoqda.

Axborotning texnik usullar yordamida tarqatilishini mafkuraga nisbatan ikkinchi darajali ish deb hisoblash soddalik bo‘lar edi, lekin, afsuski, bunday fikrlash tez-tez uchrab turadi. Ushbu masalada biz rossiyalik I.N. Panarinning fikrini to‘g‘riroq deb hisoblaymiz. Olim shunday deb yozadi: “Internetning global tarmoqlari rivojlanishi axborot asri boshlanishining eng xarakterli misollaridan biridir. AQSh va Xitoyning geosiyosiy yutuqlari ularning xarbiy va iqtisodiy kuchqudratidan ko‘ra eng avvalo axborot sohasidagi qudrati bilan va dunyoda sodir bo‘layotgan

asosiy axboriy, madaniy hamda ijodiy jarayonlar ustidan nazorat o‘rnatganliklari bilan belgilanadi”<sup>17</sup>. Muallifning yozishicha, axborot ta’siri har bir jamiyatda boshqa jarayonlarni belgilab beradi. Bunday fikrga qo‘silmasdan ilojimiz yo‘q.

Shiddatkor davrda axborot to‘plash va tarqatish borasida yangi-yangi muammolarga duch kelinishi tabiiy holga aylangan. So‘nggi yillarda mamlakatimizga chetdan qilina boshlagan axboriy tahdidlarga qarshi kurash juda katta mehnat va matonat talab qilayotganini izohlashga hojat bo‘lmasa kerak. Bundan asosiy maqsad o‘sha zaharli axborotlarga qarshi ayniqsa yoshlarda zarur immunitetni oshirishdir. Shu bilan bir qatorda o‘sha axboriy tahdidlariga qarshi kurashish ham talab etiladi. Ishning amaliy ahamiyati – unda tadqiq va tahlil etilgan mavzulardan talabalar, ushbu sohaga qiziqqan yoshlar, maktab va kasb hunar kollejlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarida foydalanish mumkin.

**- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Globallashuv qonuniyatlarini o‘zimiz tushunganimizcha keltirishga harakat qilamiz.

1. Globallashuv davomida, albatta, mamlakatlarning sivilizatsion o‘ziga xos xususiyatlari emas, balki ushbu jarayonda faol mavqyeni egallab turgan davlatlar uchun foydali bo‘lgan, masalan, g‘arbiy demokratiya prinsiplari singari g‘oyalari keng tarqatiladi.

2. Globallashtirish tashabbuskorlari uchun ham, uning natijalarini qabul qilayotgan davlatlar uchun ham xavfsiz bo‘lgan g‘oya yoki buyumlar (masalan, kompyuterlar, lekin atom bombalari emas) globallashishi mumkin. Ayrim diniy aqidalardan kelib chiquvchi shubhali g‘oyalari yoki ma’lum bir xalqlar yaxshi ko‘rgani holda, boshqa xalqlar xushlamaydigan tadbirlar globallashmaydi.

3. Faqat ilg‘or turmush tarzi va hayotiy normalar, masalan, tenglik va demokratiya g‘oyalari, gigiena qoidalari va h.k. globallashadi.

4. Qulayliklar yaratadigan, ruhiy qoniqish yoki moddiy farovonlik olib keladigan narsalar: musiqa anjomlari va plastik oynalar, kliplar va h.k. buyumlar globallashtiriladi

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ba’zan “ommaviy madaniyat” niqobi ostida milliy mentalitetimizga yot g‘oyalari to‘xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapirilmoqda. Bunday oqimga qarshi o‘zimizga mos ma'lumotlarni internetga kiritib borish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida yurtimiz hayotiga oid noxolis ma'lumotlarga javoban axborotlarni global miqyosda targ‘ib-tashviq etishga xizmat qilib, axborot xurujlariga qarshi o‘ziga xos qalqon vazifasini bajaradi. Ayni vaqtida bunday sa'y-harakatlar axborot xurujlari ta'sirini kamaytirish va milliy axborot makoni xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

- Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз - Тошкент - «Ўзбекистон». 2016 –Б.9.
- Панарин И.Н. Информационная война и дипломатия. – М.: ОАО “Издательский дом “Городец”, 2004. – 445б.

<sup>11</sup> Панарин И.Н. Информационная война и дипломатия. – М.: ОАО “Издательский дом “Городец”, 2004. – 445б.

3. Азизхўжаев А . Фуурнинг-ку чегараси йўқ, андишанинг-чи? //Миллий тикланиш, 2009 йил 20 май
4. Зокиров Б. Глобаллашув зиддиятлари. //Тафаккур, 2004 йил 1-сон.
5. Суюнов А. “Оммавий маданият” кўланкаси. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010 йил 21 май.
6. Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Т.: Akademiya, 2006.
7. Расулов А. Глобал жараёнлар ва маънавият. //Ўзбекистон матбуоти, 2008 й. 5-6 сон
8. Сайдов У. Глобаллашув ва маданиятларо мулоқот. –Т.: Академия, 2008. .
9. Кўчкор Норқобил. Онгни заҳарлаш йўлидаги қураш ёхуд жаҳонни тобе этиш даъвосидаги мафкуравий хуружлар. //Даракчи, 2009, 21 май.
10. Бегматов А . Глобаллашув, миллий маънавият ва ахборот тизимлари. Т., 2006.
11. Мўминов Ф. А. Ахборот хавфсизлиги ва ижтимоий тараққиёт. //Ўзбекистон матбуоти, 2007 йил 6-7-сонлар.
12. Эшбеков Т . Ахборот-психологик хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўкув қўлланма. –Т.: ЎзМУ, 2013
13. Ўсаров О , Ахборотлашाटган жамият талаблари: қонун, ижро, масъулият. //Ўзбекистон матбуоти, 2008 йил 3-сон.
14. Иргашев Ж. Г. Оразимбетов Р. М. Ахборот хавфсизлиги ва ишончлилигини таъминлаш-Т.2015.
15. Миродова Ш, Проблемы обеспечения информационной безопасности Республике Узбекистан в условиях глобализации. – Т., 2008.
16. Мухаммадиев Ж.Ў . Ахборот хавфсизлиги: муаммо ва ёнимлар: Монография. – Т., 2011.